



MIGRANT OILALARDAGI ER-XOTINLARDA SEVGI VA SIMPATIYA TUYG‘USI NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xasanboy Abdusamatov¹

¹“ISFT” instituti professor v.b., psixologiya fanlari doktori (DSc)

KALIT SO‘ZLAR	ANNOTATSIYA
Sevgi, simpatiya, migrant oilalar, sevgi nazariyasi, fenomen.	Ushbu maqolada psixologiyada fenomen hisoblangan sevgi tuyg‘usi o‘rganilgan. Sevgining turli nazariyalari ko‘rsatilgan. Maqolada migrant oilalardagi er-xotinlarning hissiy munosabatlari bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari taqdim etilgan. Er-xotinlar o‘rtasidagi sevgi va simpatiya munosabatlariga bag‘ishlangan xorij olimlarining tadqiqotlari ko‘rsatilgan. O‘zbek migrant oilalaridagi ijtimoiy-psixologik va hissiy munosabatlarga bag‘ishlangan.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА	АННОТАЦИЯ
Любовь, симпатия, семьи мигрантов, теория любви, феномен.	В этой статье исследуется чувство любви, которое считается феноменом в психологии. Показаны разные теории любви. В статье представлены результаты исследования эмоциональных отношений супругов в семьях мигрантов. Показаны исследования зарубежных ученых, посвященные отношениям любви и симпатии между супругами. Посвящена социально-психологическим и эмоциональным отношениям в семьях узбекских мигрантов.
KEY WORDS	ABSTRACT
Love, sympathy, migrant families, theory of love, phenomenon	This article explores the feeling of love, which is considered a phenomenon in psychology. Different theories of love are shown. The article presents the results of a study of the emotional relationships of spouses in migrant families. The research of foreign scientists on the relationship of love and sympathy between spouses is shown. It is devoted to socio-psychological and emotional relationships in the families of Uzbek migrants.

Kirish. Oiladagi er-xotinlarning emotsional munosabatlari qadimdan jamoatchilikning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Chunki, oiladagi er-xotinning emotsional munosabatlari juda nozik muammodir. Er-xotinlarda emotsional munosabalar namoyon bo‘lishi bir qator ijtimoiy-psixologik holatlar yuzaga keltiradi. Oilalarda er-xotinlar orasidagi emotsional munosabatlarda o‘zaro intilish, jinsiy moyillik, sevgi, mehr-muhabbat, hissiy intilish, o‘zaro hurmat kabi omillar o‘z ifodasini topgan.

Ming yillar davomida emotsional munosabatlar erkak va ayol o‘rtasidagi asosiy munosabatlardan biri bo‘lib kelgan. Sevgi, simpatiya bilan birgalikda er-xotin o‘rtasida emotsional munosabatlarni

shakllantirish uchun asos bo‘ladi. Shuning uchun hozirgi kunda sevgi va simpatiya psixologiya, sotsiologiya, falsafa, psixofiziologiya kabi fanlarda tobora kengroq o‘rganilib kelinmoqda [3].

Sevgi fenomeni inson shaxsini rivojlantiruvchi omillaridan biri hisoblanib, boshqalar bilan emotsional munosabatlarni o‘rnatishda asosiy o‘rin egallaydi. Shuningdek, oila institutiga asos bo‘ladigan platformadir. Sevgi insonning eng murakkab hissiyotlaridan biri bo‘lishi bilan birga, eng asosiysi hamdir. Sevgi haqida turli xil nazariyalar mavjud bo‘lib, psixologlar muhabbat muhim ahamiyatga ega ekanligi borasida yaxlit fikrga egalar. Ammo zamonaviy psixologlar ham

bu hodisa nima uchun va qanday sodir bo‘lishiga aniq javob topa olmaganlar [1].

Er-xotinlarning o‘zaro munosabati va emotsional aloqalari turli xil moddiy va ma’naviy ehtiyojlarni qondirish zaruratidan kelib chiqadi. Bu ehtiyojlarga juftliklarning birga dam olishi, birgalikda bo‘sh vaqtini o‘tkazish, uy ishlarini tashkil etishda, bolalar parvarishi va tarbiyalash kabilar tashkil etadi. Tabiiyki, turmush o‘rtoqlarda ushbu faoliyatlar ular orasidagi u bu darajada o‘zaro tushunish, kundalik hayotda yuzaga keladigan vaziyatlarni bir xil baholash, hamkorlik qilishning maqsad va vazifalarini o‘zaro hal qilishni taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiya. Hozirga vaqtda sevgi, hissiy bog‘liqlik va yoqtirishni tushuntirishga qaratilgan to‘rtta asosiy nazariya mavjud. Bular – Zik Rubinning “yoqtirish va sevisht shkalalari”, Elayn Xetfildning “ehtirosli va hamdardli sevgi nazariyasi”, Jon Lining “muhabbatning olti uslubi”, Robert Sternbergning “uchlik sevgi nazariyasi” lardir [1]. Psixologiyada sevgi-muhabbat tuyg‘ulari bo‘yicha bir qator ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan. V.V.Stolin er-xotinlar o‘rtasidagi emotsional munosabatlarni tahlil qilar ekan, sevgi turlari tipologiyasi haqida to‘xtalib o‘tadi. V.V.Stolinning fikricha, sevgini ta’riflashda asosan ikkita mezon – “sevgi – nafrat” hamda “hukmronlik – bo‘ysunish”ga asoslanadi.

Biroq, bu ta’riflar sevgining faqat uchta turini ajratib berishga harakat qiliadi: uyg‘unlashgan sevgi (sevgi va tenglik), “qurbonlik sevgisi” (sevgi va bo‘ysunish) va “despotik sevgi” (sevgi va hukmronlik). Bu sevgi turlarining barchasi er-xotin munosabatlarida emotsional munosabatlarda qay tarzda ifodalanishiga sabab bo‘ladi [4].

Biz tadqiqotimizda migrant va migrant bo‘lmagan oilalardagi er-xotinning hissiy munosabatlarining zamini bo‘lgan sevgi va simpatiyaning ta’siri psixologik xususiyatlarini o‘rgandik. Migrant oilalarda o‘zaro er-xotin munosabatlari migrant bo‘lmagan oilalarga qaraganda psixologik, ijtimoiy, ma’naviy jihatdanam farq qiladi. Uzoq muddat birga yashamaslik, bir-birini ko‘rmaslik turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi hissiy munosabatlarga salbiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Shularni inobatga olib, mamkalamizda migrant va migrant bo‘lmagan oilalardagi er-xotinning hissiy munosabatlarining psixologik jihatlarini o‘rganish uchun L.Y.Gozman, Y.E.Aleshina tomonidan modifikatsiya qilingan “Simpatiya va sevgi shkalasi” metodikasidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida migrant oilalardagi er-xotinlarning hissiy munosabatlari farzandlar soniga bog‘liqligi o‘rganildi.

1-jadval

Migrant oilalardagi hissiy munosabatlar hamda farzandlar sonining bog‘liqliklar qonuniyati (n=162)

Aloqadorliklar	Nikohdan qoniqish	O‘zaro tushunish	Hissiy intilish	O‘zaro hurmat
Farzandlar soni	-0,234**	0,221**	-0,135	0,032
Sevgi	0,261**	0,109	0,307**	0,363**
Simpatiya	0,172*	0,097	0,219**	0,279**

Izoh: *- p<0,05, **- p<0,01.



Empirik natijalar asosida olingan ko'rsatkichlarda mehnat migrant oilalarida migratsiyaga ketishning asosiy sababi oilani moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashdir. Oilada farzandlar sonining ko'payishi bu ehtiyojni qondirish sababini kuchaytiradi. Shundan kelib chiqib, ayol ham erkak nikohdagi hissiy munosabatlarini moddiy ehtiyojlardan keyingi o'ringa qo'yishi sababli ularda farzandlar sonining ortishi bilan nikohdan qoniqish ham pasayib boradi ($r=-0,234$; $p<0,01$).

Er-xotinlarda o'z nikohidan qoniqish darajasi yuqori bo'lgan oilalarning farzandlarida ijtimoiy motivlar ustunlik qilib, bolaning qarashlari jamoa muvaffaqiyatiga yo'naltiriladi, ota-onasining nikohidan qoniqmaganda esa shaxsiy motivlar ustunlik qilib, uning qarashlari o'zining muvaffaqiyatiga yo'naltirilgan bo'ladi. Er-xotinlar oilada nikohdan qoniqish hosil qilganda, bolalarda biz tushunchasi ustuvor bo'lib, boshqalar haqida o'ylashni o'rganadigan uyg'unlik muhiti yaratiladi.

Mehnat migrantlari er-xotinlari o'rtasida o'zaro tushunish darajasi bu albatta shaxslararo munosabatlar orqali bir-birlarini yaxshiroq bilib olishi bilan belgilanadi. Bunga oiladagi migratsiya jarayoni ma'lum darajada turtki ham bo'ladi. Bu vaziyatda juftliklar emotsional zo'riqish, oilada yuzaga keladigan nizolar sababli bir-birlarining zaif hamda kuchli jihatlarini o'rganib, bir-biriga moslashib boradi. Bilamizki, uzoq yillar davomida birga yashagan turmush o'rtoqlarda o'zaro tushunish darajasi yuqori bo'ladi. Oilada farzandlarning ko'payishi esa muammolarni birgalikda yechish yo'li orqali o'zaro tushunishni yanada kuchaytiradi ($r=0,221$; $p<0,01$).

Er-xotin o'rtasidagi sevgi bu bir-birini qadrlaydigan ulug'vor, ehtirosli hissiyotdir. Mehnat migrant oilalarida sevgi tuyg'usi nikohdan qoniqish darajasi bilan bog'liqligini o'rganish

natijasida aniqlandiki, er-xotinning ma'lum muddat bir-biridan uzoqda yashashi ularda umidsizlik hissini uyg otadi va uchrashuv eyforiya manbaya sifatida qabul qilinadi ($r=0,261$; $p<0,01$).

Migrant oilalari juftliklari o'rtasidagi sevgi har ikkalasining kuchli tomonlarini oshirib, kamchiliklarini yashiradi. Er-xotinlarda emotsional munosabatlar rivojlanishiining birinchi bosqichi simpatiyaning yuzaga kelishi hamda rivojlanishi bilan bog'liqdir. Ikkinchi bosqichda shaxsiylik xususiyatlari ahamiyat kasb etadi. Hamkorlik, o'zaro tushunish simpatiyani yanada mustahkamlovchi omil sifatida yuzaga keladi. Munosabatlar simpatiyadan sevgiga qarab rivojlanar ekan, bu jarayon nikohdan qoniqishning ham ortishiga sabab bo'ladi ($r=0,172$; $p<0,05$).


Er-xotin munosabatlaridagi sevgi murakkab hissiyot bo'lib, uning asosini hissiy intilish tashkil etadi. Hissiy intilish emotsional munosabatlardagi ishonch, muloqotdagi ochiqlik, xursandchilik hamda qayg'uni bo'lishish, emotsional qo'llab-quvvatlash, turmush o'rtog'ini e'zozlash asosida shakllanadi. Shu tariqa, mehnat migrant oilalarda er-xotin o'rtasidagi sevgining hissiy intilish bilan bog'liqligi aniqlandi. Migrant oila juftliklarida sevgi komponentining oshishi ular o'rtasidagi hissiy intilishning ortishiga turtki bo'lar ekan ($r=0,307$; $p<0,01$).

O'zbek oilalarda milliy ruhda tarbiyalangan o'g'il-qizlar o'zining ichki tuyg'ularini, hissiy kechinmalarini turmush o'rtog'iga har doim ham ayon qilavermaydi. Bu ayniqsa turmush o'rtoqlardan birining ishlash uchun boshqa davlatga ketgan hollarida bir-birlarini hissiy jihatdan tushunishni qiyinlashtiradi. Natijada hayotiy masalalarda turli ziddiyatlar kelib chiqishi mumkin. Jinsiy munosabatlar faolligi kam bo'lganda, har ikki tomon o'z hissiyotlarini aytishga qiynaladi. Yosh oila yangi turmush qurganda ular orasidagi munosabatlarning

birlamchi ko‘rinishi simpatiya ko‘rinishida shakllanadi. Keyinchalik bu munosabatlar simpatiyadan sevgiga aylanadi. Bu esa, o‘z navbatida, mehnat migrant oilalarida simpatiya, ular orasidagi hissiy intilish omilining yuqori bo‘lishiga olib keladi ($r=0,219$; $p<0,01$).

Bugungi kunda nikoh-oila munosabatlarida psixologik omillar rolining ortib borayotganligi, o‘zbek oilalardagi etnopsixologik xususiyatlardan kelib chiqib, oilada erning mavqeyi baland bo‘lishi o‘zaro hurmat omilining yaqqolroq namoyon

bo‘lishiga turtki bo‘ladi. Oilaviy turmushning dastlabki bosqichlarida har ikkalasida ham hissiy-emotsional intilishlar yuqori bo‘ladi. Yillar o‘tishi bilan hissiy munosabatlar bilan bir qatorda do‘stlik, hamdardlik, bir-birini qo‘llab-quvvatlash va o‘zaro hurmat kabilarninh ham o‘rni ortib boradi. Shunday ekan er-xotin o‘rtasida sevgi ($r=0,363$; $p<0,01$) hamda simpatiyaning ortishi ular orasidagi o‘zaro hurmat omilining ortishiga sabab bo‘lar ekan ($r=0,279$; $p<0,01$).



1-rasm. Migrant oilalardagi hissiy munosabatlar sonining bog‘liqlik qonuniyati

Attraksiya emotsional munosabatlarda simpatiyadan to sevgining yuzaga kelishigacha bo‘lgan davrda boshlang‘ich mexanizmi hisoblanadi. Attraksiya statusli – rolli farqlarda, munosabatlar xarakteri yo‘nalishida hamda juft shakllantirishda muhimdir. A.Maslouning fikricha, er-xotirlarning emotsional munosabatlardagi psixologik hamda jinsiy qoniqish yillar davomida oshib boradi. Er-xotinning bir-biriga bo‘lgan doimiy qiziqishlari ortib borishi ular da to‘g‘ri idrokni shakllantiradi. Biri boshqasiga to‘g‘ri baho

beradi, kamchiliklarini anglaydi hamda boricha qabul qiladi va bu psixologik qulaylikni ta‘minlaydigan asosiy omil hisoblanadi. Nikohdan qoniqishda jinsiy munosabatlar muhim bog‘lovchi vosita hisoblanib, er va xotin o‘rtasida qalin hissiy munosabat shakllanishiga xizmat qiladi. Migrant oilalarda bunday munosabatlar to‘g‘ri shakllanganda, qiyinchiliklarga qaramay, turmush o‘rtog‘idan biri uyda bo‘lmaganda ham, ular bir-biriga ishonch bildiradi, behuda shubhalardan yiroq bo‘ladi, xiyonat qilishni o‘ylab ham

koʻrmaydi. Uzoq vaqt ayro boʻlganda, obyektiv holatni anglay olish ularda hissiy munosabatlarni saqlab qolishga imkon beradi.

E.G.Eydemiller va V.V.Yustiskiylar simpatiyaga emotsional munosabatlardagi barqarorlashtiruvchi kuch sifatida qarashadi. Er-xotin munosabatlaridagi simpatiya oilada hamda juftliklarda yuzaga keladigan *frustratsiya*¹ holatini maʼlum darajada neytrallashtiradi. Bundan tashqari munosabatlarni oʻzaro hurmat, oʻzaro tushunish hamda hissiy intilish omillarizsiz saqlab boʻlmaydi. Munosabatlardagi hissiy yaqinlik sifati er-xotinning oʻzaro ishonch hamda tushunish orqali oʻz fikr va hissiyotlarini bir-biriga ayta olishi orqali aniqlanadi [5].

Migratsiya jarayonida er-xotin oʻrtasida emotsional munosabatlar susayish oqibatida

ularning oʻzaro hissiy munosabatlarida oʻzgarishlar kuzatiladi. Bu esa ular oʻrtasida nizo va kelishmovchiliklar kelib chiqishiga sabab boʻlib, ajrimgacha olib kelishi mumkin. Emotsional munosabatlarning buzilishi shaxsning psixik va somatik holatiga destruktiv taʼsir koʻrsatadi. Munosabatlarning buzilishi nafaqat oilaga, balki oila aʼzolariga ham oʻz taʼsirini oʻtkazadi.

Bundan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, er-xotinning hissiy munosabatlar – sevgi, simpatiya qanchalik yuqori boʻlsa, emotsional munosabatlaridagi oʻzaro hurmat, intilish, tushunish shuncha toʻkis boʻladi. Oilaning barqarorligini taʼminlash, emotsional munosabatlarga erishish uchun bu uchala omil darajasini oshirish lozim.

2-jadval.

Migrant boʻlmagan oilalardagi hissiy munosabatlar hamda farzandlar sonining bogʻliqliklar qonuniyati (n=148)

Aloqadorliklar	Nikohdan qoniqish	Oʻzaro tushunish	Hissiy intilish	Oʻzaro hurmat
Farzandlar soni	0,110	-0,068	0,028	0,040
Sevgi	0,535**	0,255**	0,375**	0,330**
Simpatiya	0,534**	0,318**	0,388**	0,425**

Izoh: ** - $p < 0,01$.

Yuqoridagi jadvalda mehnat migrantlari oilalarida nikohdan qoniqish darajasi farzandlar soni bilan bogʻliqligi aniqlangan boʻlib, farzandlar soni ortishi bilan ularda nikohdan qoniqish darajasi pasayishi kuzatildi. Migrant boʻlmagan oilalarda farzandlarning ortishi ularda nikohdan qoniqish darajasiga taʼsir koʻrsatmasligi aniqlandi.

Migrant boʻlmagan oilalarda er-xotinlar orasida sevgining ortishi ularda oʻz nikohlaridan

qoniqish hissini beradi ($r=0,535$; $p < 0,01$), turmush oʻrtoqlarda bir-birini tushunishni kuchaytiradi ($r=0,255$; $p < 0,01$), bir-biriga nisbatan hissiy intilishga moyillikni kuchaytiradi ($r=0,375$; $p < 0,01$) hamda oʻzaro hurmat omilining yuqori boʻlishiga turtki boʻladi ($r=0,330$; $p < 0,01$). Bundan koʻrinadiki, oila barqarorligini taʼminlashda er-xotinning emotsional intilish, yaqinlikning bir xil boʻlishi ularda koʻp jihatdan oʻzaro tushunish va

¹ **Фрустрация** (lot. frustratio – “rejalarning barbod boʻlishi”, “niyatlarni yoʻqqa chiqarish” – u yoki ehtiyojlarni qondira olmaslik sharoitida yuzaga keladigan ruhiy holat.

o‘zaro hurmat omili bilan bog‘liq bo‘lib, doimo bir-birining yonida bo‘lish muammolarga yechim topishni osonlashtiradi.

Munosabatlarda simpatiyaning ortishi er-xotinlarda nikohdan qoniqish tuyg‘usini beradi ($r=0,534$; $p<0,01$), o‘zaro bir-birini yanada samarali tushunish imkonini beradi ($r=0,318$;

$p<0,01$), hissiy intilishni oshiradi ($r=0,388$; $p<0,01$), bir-birlariga nisbatan o‘zaro hurmatni kuchaytiradi ($r=0,425$; $p<0,01$). Natijalardan ko‘rinadiki, nikohning muvaffaqiyatli bo‘lishi ko‘p jihatdan er-xotinlarning oiladagi teng ishtiroki orqali amalga oshiriladi.

3-jadval.

Migrant oilalardagi hissiy munosabatlar hamda farzandlar sonining bog‘liqliklar qonuniyati (n=162)

Aloqadorliklar	Xotirjamlik-xavotir	Energiya-charchoq	Yuksalish-tushkunlik	O‘ziga ishonch-ishonchsizlik
Farzand soni	-0,006	-,0118	-0,205*	-0,167*
Sevgi	0,196*	0,131	0,134	-0,048
Simpatiya	0,297**	0,251**	0,213**	0,039
Oilaviy hayotdan qoniqish	0,177*	0,180*	0,216**	0,252**
O‘zaro tushunish	0,161*	-0,114	0,042	0,014
Hissiy intilish	0,141	0,084	0,222**	0,126
O‘zaro hurmat	0,191*	0,046	0,217**	0,018

Izoh: *- $p<0,05$, **- $p<0,01$

Mehnat migratsiyasi nafaqat oilalarga, balki shaxsning o‘ziga ham muayyan darajada ta’sir ko‘rsatadi. Turmush o‘rtoqlardan biri ma’lum muddat boshqa davlatda ishlayotgan oiladagi er-xotin emotsional munosabatlarida yuzaga keladigan muammolar albatta shaxsning emotsional holatida ham salbiy o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Oiladagi farzandlarning ko‘pligi, ularni moddiy jihatdan ta’minlash, o‘qitish, uylantirish kabi muammolar ulardagi emotsional holatining pasayishiga, ya’ni tushkunlik holatiga sabab bo‘ladi ($r=-0,205$; $p<0,05$). Bunday vaziyat bilan to‘qnashganda ushbu muammolarni bartaraf etishga sarflangan vaqt oralig‘ida salbiy emotsiyalarni uzoq vaqt his qilib yurish natijasida o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishi oqibatida ishonchsizlik shakllanadi ($r=0,167$; $p<0,05$).

Mehnat migrantlari oilalaridagi bunday muammolar o‘zga yurtga ishlashga ketganda o‘sha davlatda yuzaga keladigan muammolar (ijtimoiy-psixologik moslashuvdagi qiyinchiliklar, qabul qiluvchi jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, yangi madaniyatning migrantlarga stressli ta’siri) bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Bunday holat “hissiy so‘nish” sindromi nomi bilan yuritiladi. Bu shaxs umumiy emotsional holatining pasayishi, hamma narsaga befarqlik bilan qarash, majburiyatlardan qochish, juftiga nisbatan munosabatlardagi o‘zgarishlarda ko‘rinishi mumkin.

Er-xotin munosabatlarini saqlash va mo‘tadillashtirishda moddiy-iqtisodiy ta’minot, majburiyat va vazifalar, oilani himoyalash mexanizmlari kabi psixologik omillar muhimdir. Emotsional munosabatlarning to‘ydan keyingi

holatda ham saqlanib qolishi nikohdagi subyektlar harakatiga bog‘liq. Bu o‘zaro hurmat omilining faolligiga ham bog‘liq. Oilada emotsional bog‘lanish bo‘lmaganda ham munosabatlarni rivojlantirish mumkin. O‘zaro hurmat omilining yuqori bo‘lishi ularda xotirjamlikning ortishiga hamda yuksalish hissining baland bo‘lishga turtki bo‘ladi.

Migrant oilalarda er-xotin munosabatlaridagi sevgidan simpatiyaning baland bo‘lishi turmush o‘rtog‘i oldida ma’suliyat hissi, burch vazifasini yanada oshirib, uni birlamchi qilib, shaxsiy hissiy munosabatlarni ikkilamchi o‘ringa tushirib

qo‘yadi. Bundan tashqari simpatiya ko‘rsatkichining yuqori bo‘lishi turmush o‘rtoqlarda nikohning darz ketishi mumkinligi haqidagi o‘ylarga sabab bo‘ladi. Chunki turmush o‘rtoqlardan birining uyda uzoq muddat bo‘lmasligi uyda qolgan boshqa turmush o‘rtoqning mas’uliyatini ikki karra oshiradi. Shuni bilgan er-xotirlarda turmush o‘rtog‘ining hozirgi oilaviy holatidan noroziligi natijasida nikohidagi er-xotin munosabatlarini buzilishiga va ajralishga sabab bo‘lib qoluvchi o‘ylarni uyg‘onishining o‘zi ularda rashk tuyg‘usini uyg‘otishga sabab bo‘ladi.

4-jadval.

Migrant bo‘lmagan oilalardagi hissiy munosabatlar hamda farzandlar sonining bog‘liqliklar qonuniyati (n=148)

Aloqadorliklar	Xotirjamlik-xavotir	Energiya-charchoq	Yuksalish-tushkunlik	O‘ziga ishonch-ishonchsizlik
Farzand soni	-0,087	0,032	-0,023	-0,006
Sevgi	0,284**	0,286**	0,105	0,265**
Simpatiya	0,210*	0,237**	0,170*	0,178*
Oilaviy hayotdan qoniqish	0,220**	0,226**	0,116	0,234**
O‘zaro tushunish	0,199*	0,163*	0,171*	0,099
Hissiy intilish	0,186*	0,245**	0,053	0,311**
O‘zaro hurmat	0,218**	0,302**	0,135	0,254**

Izoh: *- p<0,05, **- p<0,01

Er-xotirlarning emotsional munosabatlariga ta’sir qiluvchi migratsiya jarayonlarini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, ular o‘rtasidagi munosabatlar tizimi, shart-sharoitlar, oilada yuzaga keladigan o‘zgarishlar katta ahamiyat kasb etadi. Migrant bo‘lmagan oilalarda farzandlar soni shaxsning emotsional sohalarda o‘zini baholash bilan bog‘liqlik aniqlanmadi. Er-xotin o‘rtasidagi sevgi ko‘p jihatdan oiladagi xotirjamlikka olib keladi (r=0,284; p<0,01), ish faolyatidagi energiya hissini oshiradi (r=0,286; p<0,01), o‘ziga bo‘lgan

ishonchni oshiradi (r=0,265; p<0,01). Munosabatlarda simpatiyaning ko‘p jihatdan yuqori bo‘lishi ularda emotsional holatlardagi xotirjamlikni (r=0,210; p<0,05), energiyani (r=0,237; p<0,01), yuksalish (r=0,170; p<0,05) hamda o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirar ekan (r=0,178; p<0,05). Turmush o‘rtoqlarda nikohdan qoniqish darajasi oilada o‘zlarini xotirjam his qilishlariga (r=0,220; p<0,01) va energiyaga boy bo‘lishlariga olib kelar ekan (r=0,226; p<0,01).



Bundan tashqari nikohdan qoniqish o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi ($r=0,234$; $p<0,01$).

Er-xotinlarning oilada o‘zini xotirjam his qilishlari ularda o‘zaro tushunish omilini ($r=0,199$; $p<0,05$), hissiy intilish ($r=0,186$; $p<0,05$) hamda o‘zaro hurmat omillarini oshirishga turtki bo‘lar ekan ($r=0,218$; $p<0,01$). Bundan tashqari energiya hissining ortishi ham ularda bu uchala omilning oshishiga olib keladi ($r=0,163$; $p<0,05$, $r=0,245$; $p<0,01$, $r=0,302$; $p<0,01$). O‘ziga bo‘lgan ishonch hissi hssiy intilish ($r=0,311$; $p<0,01$) va o‘zaro hurmat omili bilan bog‘liqligi aniqlandi ($r=0,254$; $p<0,01$).

Turmush o‘rtoqlarning nikohdan qoniqishi ahamiyatli darajada bir-biriga bo‘lgan rag‘batlantiruvchi hatti-harakatlari bilan bog‘liqdir. Er-xotinlarda nikohdan qoniqish sherigi hatti-harakatlari bilan boshqasini xursand qilganida oshib boradi; bu ijobiy emotsiyalarni oshiradi, nikoh munosabatlardagi ishonch va mustahkamlikni rivojlantiradi. Aynan oilaviy sog‘lom munosabatlarda bo‘ysundirish, manipulyatsiya qilish yetakchilik qilmay, balki mas’uliyat, adolat va burch turmush o‘rtoqlar munosabatlarida taqsimlanadi. Bundan tashqari ularda o‘zaro hurmat, muloqotdagi ochiqlik, o‘zaro ishonch, real hayot bilan yashashni ta’minlaydi. Er-xotinlar emotsional munosabatlarini rivojlantirishda bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarda ijobiy ta’sir etish, sherigiga e’tibor qaratish, fikrlari, qiziqishlariga e’tibor qaratish, o‘zining fikr-tuyg‘ularini erkin ayta olishi, munosabatlardagi tabiiylik, yaqinlikni saqlay olishi lozimdir. Bu holatlar ko‘p jihatdan migrant

bo‘lmagan oilalarga xosdir. Chunki kommunikatsiya jarayonlarida diqqatlarini asosiy muammoga qaratishdan tashqari o‘zlarini hissiy munosabatlariga e’tibor qaratishadi. Migrant oilalarda esa kommunikatsiya jarayonlari er-xotinlarda har doim ham bir xil bo‘lmaydi. Ular uzoqdan bir-biri bilan gaplashganda, erning telefon qilganda oiladagi maishiy ehtiyojlardan kelib chiqib gaplashishadi, asosan, erning uy-ro‘zg‘ordagi va farzandlarga bog‘liq vaziyatlar haqida gapirsa, xotinda erning qancha pul topayotgani bilan bog‘liq moddiy jihatdan gaplashiladi. Tabiiyki, birlamchi ehtiyojlarning birinchi o‘ringa chiqib, hissiy ehtiyojlarning ikkinchi o‘ringa tushib qolishi nikoh munosabatlaridagi inqirozlarga olib keladi.

Xulosa. Oilalarda yuzaga keladigan muammolarga er-xotinlar turlicha yo‘llar bilan o‘z munosabatlarini bildiradi. Paydo bo‘lgan biron muammo ustida birgalikda ko‘proq birlashib harakat qilishsa, boshqa muammolarga nisbatan ular zaifroq ta’sir ko‘rsatishga ega bo‘lib, bu qarama-qarshiliklar esa munosabatlarda ziddiyatlar va buzilishlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan migratsiya sohasidagi ishlar migrantlarni har doim qo‘llab-quvvatlash, ularning xorijdagi zararli muhitga tushib qolmasligi, ortlariga qaytganlaridan so‘ng oilalarida ijtimoiy-psixologik muammolar yuzaga kelmasligi uchun turli tomondan yondashmoqda. Shunga qaramay, migratsiyaning oila mustahkamligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi davom etmoqda.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/2-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘uxati:

1. Pol Kleymen. Psixologiya 101. Toshkent: Qalam Nashr, 2021. – 288 b.

2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. – T.: Hilol-Nashr, 2023. – B.174-241.

3. Abdusamatov X. Migrant oilalarning ijtimoiy-psixologik muammolari va yechimlari. Psixol. fan. dok. diss. avtoref. – T.:, 2022. – 17 b.

4. Екимчик О.А. Любовь и привязанность в супружеских отношениях // Материалы III Международной научной конференции «Психологические проблемы современной семьи» в 2-х частях. – Часть 1. / Под общ. ред. А.Г. Лидерса. – М., 2007. – С. 308-315.

5. Эйдемиллер Э.Г., Юстицкис В. Психология и психотерапия семьи. – СПб.: Питер, 2001. – 656 с.